



Globalashuv sharoitida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolishning ilmiy-pedagogik asoslari

Aripov Shokirjon Olimovich –

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika kafedrası katta o'qtuvchisi
pedagogika fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

E-mail: sh_aripov89@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-7703-0027>

Qambarjon Tursunaliyev Qaxramon o'g'li –

Farg'ona davlat universiteti pedagogika nazariyasi va tarixi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada globalashuv sharoitida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolishning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda globalashuv jarayonlarining oilaviy tarbiya tizimiga ta'siri, milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni hamda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, oilada milliy o'zlikni shakllantirish, tarixiy xotirani mustahkamlash va mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari oilaviy tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: globalashuv, oilaviy tarbiya, milliy tarbiya, tarixiy tarbiya, milliy g'oya, ma'naviyat, pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, mafkuraviy immunitet, milliy o'zlik, tarixiy xotira, ta'lim va tarbiya, oila va jamiyat.

Научно-педагогические основы сохранения национального и исторического воспитания в семьях на основе современных педагогических подходов в условиях глобализации.

Аннотация. В данной статье рассматриваются виды дифференцированных заданий, направленных на повышение грамотности, их значение в образовательном процессе, а также роль в развитии индивидуальных способностей учащихся. Кроме того, анализируется эффективность дифференцированных заданий в формировании самостоятельного мышления, навыков чтения и письма учащихся. Также показаны преимущества использования современных педагогических методов в процессе обучения.

Ключевые слова: глобализация, семейное воспитание, национальное воспитание, историческое воспитание, национальная идея, духовность, педагогические подходы, инновационные технологии, идеологический иммунитет, национальная идентичность, историческая память, образование и воспитание, семья и общество.

Scientific and pedagogical foundations of conserving national and historical education in families based on modern pedagogical approaches in the context of globalization

Annotation. This article analyzes the scientific and pedagogical foundations of preserving national and historical upbringing in families based on modern pedagogical approaches in the context of globalization. The study examines the impact of globalization processes on the family upbringing system, the role of national ideas and spiritual values in the upbringing of youth, and the possibilities of applying modern innovative pedagogical technologies. The theoretical and practical aspects of forming national identity within the family, strengthening historical memory, and developing ideological immunity are also highlighted. The research results indicate the need to strengthen the cooperation between the family, the mahalla, and educational institutions in the process of family upbringing, as well as the effective use of modern pedagogical approaches.

Keywords: globalization, family upbringing, national upbringing, historical upbringing, national ideology, spirituality, pedagogical approaches, innovative technologies, ideological immunity, national identity, historical memory, education and upbringing, family and society.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida jamiyatning barcha sohalarida, xususan ta'lim va tarbiya tizimida ham chuqur o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ushbu jarayonlar bir tomondan insoniyat taraqqiyotini tezlashtirayotgan, integratsiya va innovatsiyalarni kengaytirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan milliy madaniyat, tarixiy xotira va an'anaviy qadriyatlarning saqlanishiga nisbatan muayyan ma'naviy-axloqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda [1]. Shu sababli globallashuv sharoitida oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolish masalasi bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida milliy tarbiya tizimini rivojlantirish, oila va ta'lim muassasalari hamkorligini mustahkamlash hamda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, 2004–2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, ta'lim mazmuni takomillashtirildi hamda pedagog kadrlarning ijtimoiy va kasbiy mavqei oshirildi [2]. Shuningdek, 2019-yil 20-iyunda qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" yosh avlodni ma'nan yetuk, vatanparvar va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda [3]. Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarini anglash va ularni obyektiv baholash murakkab masalalardan biridir. Chunki globallashuv bir tomondan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy integratsiyani kuchaytirs, ikkinchi tomondan ayrim hollarda gegemonlikka intiluvchi mafkuraviy ta'sirlarning kengayishiga ham zamin yaratmoqda [4]. Natijada milliy madaniyatlar, etnik qadriyatlar va tarixiy o'zlikka tahdidlar ortib bormoqda. Shu boisdan oilada milliy tarixiy tarbiyani saqlab qolish, uni zamonaviy

pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot obyekti sifatida globallashuv sharoitida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolish jarayoni tanlangan. Tadqiqot predmeti esa oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolish usullari, ularning mazmuni, shakli va metodlaridan iborat. Tadqiqotning asosiy maqsadi globallashuv sharoitida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar belgilangan: oilaviy tarbiyada milliy va tarixiy qadriyatlarning o'rnini aniqlash, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish, muammoning dolzarbligini asoslash hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, globallashuv sharoitida oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlashning pedagogik-psixologik asoslari aniqlanadi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tarbiya samaradorligini oshirish mexanizmlari takomillashtiriladi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari ishlab chiqiladi. Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik, taqqoslash, umumlashtirish, anketa-so'rov, kuzatish hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalaniladi. Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining ta'lim va yoshlar siyosatiga oid qonunlari, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Globallashuv sharoitida oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolish muammosi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya hamda falsafa fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni o'rganishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotchilardan O.Musurmonova o'smir yoshlarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini o'rgangan bo'lib, u oilaviy tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlarning o'rni va ahamiyatini asoslab bergan. K.Hoshimov, O'.Asqarova, B.Ziyomammedova, Sh.Abdullayeva va J.Yo'ldoshevlar esa axloqiy tarbiya va pedagogik jarayonlarning nazariy-metodik asoslarini chuqur tahlil qilganlar. Ularning ilmiy qarashlari oilaviy tarbiya va ta'lim muassasalari hamkorligida shaxs shakllanishining pedagogik mexanizmlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, J.Tulenov, Q.Nazarov va G.Tulenova kabi faylasuflar axloqiy qadriyatlarning jamiyat rivojida o'rnini falsafiy jihatdan tahlil qilib, milliy qadriyatlar tizimi shaxsning ma'naviy shakllanishida asosiy omil ekanligini asoslab berganlar. X.X.Jabborov esa mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganib, globallashuv sharoitida yoshlarni turli axborot ta'sirlaridan himoya qilish zarurligini ta'kidlaydi. MDH hududidagi olimlar, jumladan V.P.Baxterev, P.F.Lesgaft, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko va boshqalar shaxs tarbiyasining umumiy pedagogik asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, ularning ishlari bugungi kunda ham tarbiya nazariyasining muhim ilmiy manbasi hisoblanadi. Shuningdek, V.G.Fedotova, V.A.Kolpakov va N.N.Fedotovlar globallashuv jarayonining ijtimoiy o'zgarishlarga ta'sirini o'rgangan holda, madaniy identifikatsiya masalalarini yoritganlar.

Xorijiy tadqiqotchilardan E.Giddens globallashuv jarayonining ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilib, global jarayonlarning mahalliy madaniyatga ta'siri masalasini ilmiy asoslagan. Shuningdek, M.O.Mnatsakanyan axborot texnologiyalarining globallashuv jarayonidagi rolini o'rganib, yoshlar tarbiyasiga bo'lgan ta'sirini ko'rsatib bergan. E.V.Bondarevskaya, O.S.Bogdanova va boshqa olimlar esa shaxsning axloqiy tarbiyasi va pedagogik yondashuvlar masalasini tadqiq etganlar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy adabiyotlarda milliy va tarixiy tarbiya, oilaviy tarbiya

hamda globallashuv jarayonlarining o'zaro ta'siri alohida-alohida o'rganilgan bo'lsa-da, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida kompleks tarzda o'rganish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqotda oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolishning zamonaviy pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyati asoslanadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil (pedagogik, psixologik va falsafiy adabiyotlarni o'rganish), empirik metodlar (kuzatish, suhbat, anketa-so'rov), taqqoslash va umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov hamda kontent-tahlil metodlari. Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining ta'lim va yoshlar siyosatiga oid qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" hamda milliy va xorijiy olimlarning ilmiy nazariyalari tashkil etadi. Ushbu metodologik yondashuvlar globallashuv sharoitida oilaviy tarbiyada milliy va tarixiy qadriyatlarni saqlashning ilmiy-pedagogik asoslarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotning I bobida globallashuv sharoitida oilada milliy-tarixiy tarbiyaning nazariy asoslari tahlil qilindi va quyidagi ilmiy natijalar shakllantirildi. Avvalo, globallashuv jarayonlari zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatayotgani aniqlanadi. Ushbu jarayon bir tomondan integratsiya va innovatsiyalarni jadallashtirsa, ikkinchi tomondan milliy o'zlik, tarixiy xotira va an'anaviy qadriyatlarning saqlanishiga nisbatan yangi pedagogik muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli oilaviy tarbiya tizimida milliy va tarixiy qadriyatlarni saqlash dolzarb ilmiy-pedagogik vazifaga aylangan. Milliy g'oya va ma'naviy tarbiya fanlari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy metodologik vosita sifatida xizmat qiladi. Milliy o'zlikni anglash jarayoni oilada shakllanib, keyinchalik ta'lim muassasalari orqali mustahkamlanadi. Bu jarayonda ajdodlar merosini o'rganish, tarixiy xotirani rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish milliy va tarixiy tarbiyaning samaradorligini oshirishi aniqlandi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va raqamli vositalardan foydalanish yoshlarning bilimga qiziqishini oshiradi hamda ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli axborot oqimlari va mafkuraviy ta'sirlar kuchaygani kuzatiladi. Bu esa oilada mafkuraviy immunitetni shakllantirish, sog'lom ma'naviy muhit yaratish va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyani kuchaytirish zaruratini yanada oshiradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar oilaviy tarbiya tizimini takomillashtirishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi esa milliy-tarixiy tarbiyani mustahkamlashning eng samarali modeli sifatida e'tirof etildi. Umumiy xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, globallashuv sharoitida oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolish faqat an'anaviy yondashuvlar bilan emas, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va tizimli ma'naviy-ma'rifiy ishlar orqali amalga oshirilishi lozim. Bu esa yosh avlodning milliy o'zligini anglashini mustahkamlash va ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

1-jadval

GLOBALLASHUV VA OILAVIY TARBIYA TA'SIRI

Omillar	Ijobiy ta'sir	Salbiy ta'sir
Globallashuv	Bilim almashinuvi, innovatsiya, integratsiya	Milliy qadriyatlarning susayishi
Raqamli texnologiyalar	Tezkor axborot, interaktiv ta'lim	Axborot xurujlari, yot g'oyalar
Ta'lim tizimi	Zamonaviy pedagogika,	An'anaviy tarbiyaning

	innovatsiya	kamayishi
Oila muhiti	Tarbiya asosini shakllantiradi	Nazorat yetishmasligi
Mahalla tizimi	Ijtimoiy nazorat va qo'llab-quvvatlash	Ba'zan sust faoliyat

Globallashuv jarayonlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas omiliga aylangan bo'lib, u oilaviy tarbiya tizimiga ham bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, globallashuv axborot almashinuvi, ta'lim tizimining modernizatsiyasi va innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, milliy madaniyat, tarixiy xotira va an'anaviy tarbiya qadriyatlarining zaiflashuvi xavfini ham yuzaga keltirmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, milliy tarbiya masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, oilada milliy va tarixiy tarbiyani globallashuv sharoitida saqlashning yaxlit pedagogik modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Xususan, O.Musurmonova, K.Hoshimov, O'.Asqarova kabi olimlarning ishlari ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy asoslarini yoritgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda uning transformatsiyasi masalasi to'liq ochib berilmagan. Shuningdek, xorijiy olimlar, jumladan E.Giddens globallashuv jarayonini ijtimoiy tizimlar transformatsiyasi sifatida talqin qilib, uning madaniy identifikatsiyaga ta'sirini ta'kidlaydi. Biroq ushbu yondashuvlarda oilaviy tarbiya instituti alohida pedagogik tizim sifatida chuqur tahlil qilinmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi. Tadqiqot natijalari asosida shuni qayd etish mumkinki, globallashuv sharoitida yoshlar ongiga ta'sir etuvchi axborot oqimlari ortib borayotganligi sababli, oilada mafkuraviy immunitetni shakllantirish zaruriyati kuchaymoqda. Bu jarayonda milliy g'oya, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlar asosiy himoya mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tahlillar zamonaviy pedagogik texnologiyalar oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi. Innovatsion ta'lim usullari, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali bolalarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy bilimlarga qiziqish va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Bundan tashqari, davlat siyosati darajasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar oilaviy tarbiya tizimini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi asosida shakllangan ijtimoiy-pedagogik muhit milliy-tarixiy tarbiyani mustahkamlashning eng samarali modeli sifatida e'tirof etiladi. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashuv sharoitida oilaviy tarbiya tizimi an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni integratsiya qilgan holda rivojlantirilishi zarur. Bu esa yosh avlodning milliy o'zligini saqlab qolishi va ularni ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida globallashuv sharoitida oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammo ekanligi aniqlandi. Globallashuv jarayonlari jamiyatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatgani kabi, oilaviy tarbiya tizimiga ham bevosita ta'sir etib, bir tomondan innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan milliy o'zlik va tarixiy xotiraning zaiflashish xavfini yuzaga keltirmoqda.

Oilada milliy va tarixiy tarbiyani shakllantirishda milliy g'oya, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar hamda tarixiy meros muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy g'oya fanining vatanparvarlik, tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglashni shakllantirishdagi o'rni beqiyosdir. Shuningdek, innovatsion pedagogik yondashuvlar oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Zamonaviy ta'lim

texnologiyalari, interaktiv metodlar va raqamli vositalardan foydalanish yoshlarning milliy qadriyatlarga qiziqishini oshiradi hamda ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytiradi.

Globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli axborot oqimlari va mafkuraviy ta'sirlar kuchayganligi sababli, oilada mafkuraviy immunitetni shakllantirish, sog'lom ma'naviy muhit yaratish va milliy-tarixiy qadriyatlarni mustahkamlash zaruriyati ortib bormoqda. Shu bilan birga, oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi asosida shakllangan tarbiya tizimi milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishning eng samarali modeli sifatida namoyon bo'ladi. Davlat tomonidan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy siyosat esa ushbu jarayonni institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Globallashuv sharoitida oilalarda milliy va tarixiy tarbiyani saqlab qolish an'anaviy pedagogik yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu esa yosh avlodni milliy o'zligini anglagan, tarixiy merosga hurmat bilan qaraydigan va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari haqidagi umumiy ilmiy-pedagogik qarashlar asosida.

2. O'zbekiston Respublikasi maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi (2004–2009 yillar).

3. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi", 2019-yil 20-iyun.

4. Globallashuvning ijtimoiy va mafkuraviy ta'siri bo'yicha ilmiy manbalar tahlili.